



XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko`chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2023 - yil 6 - mart

VI-59-53-8-109-K/23

Angor tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 31-maydagi “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlashga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5132-sonli qarorining tumandagi ijrosi bo‘yicha tuman hokimi birinchi o‘rinbosarining hisoboti to‘g‘risida

Angor tumani hokimligiga 01.01.2023-yildan 13.02.2023-yilga qadar (Collective.uz) elektron hujjat almashinuvi dasturi orqali jami 1110 ta hujjatlar kelib tushgan bo‘lib, shundan ijrodagi hujjatlar 96 tani, belgilangan muddatda bajarilganlari 1014 tani, muddatida ijrosi ta’minlanmagan topshiriq va xatlar 3 tani tashkil qilgan, bajarilmagan topshiriq, xat va ko‘rsatmalar mavjud emas.

Tuman hokimligidagi belgilangan muddatda ijrosi ta’minlanmasdan, kechiktirib bajarilgan 3 ta hujjatlar qishloq va suv xo‘jaligi masalalari majmuasi hisobiga to‘g‘ri kelib, bularning 1 tasi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasidan kelgan topshirig‘i, 2 tasi Respublika tashkilotlaridan kelgan topshiriqlardir.

Joriy yilning 13-fevral holatiga qadar kelib tushgan jami 1110 ta xat va topshiriqlar majmualar kesimida tahlil qilinganda tuman iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish majmuasida 238 ta, yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar majmuasida 210 ta, tuman investitsiyalar va tashqi savdo majmuasida 106 ta, sanoatni rivojlantirish, kapital qurilish, kommunikatsiyalar va kommunal xo‘jalik masalalari majmuasida 227 ta, qishloq va suv xo‘jaligi masalalari majmuasida 114 ta, xotin-qizlar majmuasida 94 ta, tashkiliy kadrlar guruhida 63 ta, Xalq deputatlari tuman kengashida 20 ta, bolalarni himoya qilish sho‘basida 6 ta, tuman hokimligi axborot xizmati bo‘limida 4 ta va yuriskonsulda 12 ta, ijro nazoratida 7 ta, bosh hisobchida 2 ta va boshqalarda 5 tani tashkil qiladi.

Ijro intizomini mustahkamlash borasida ijobiy ishlar amalga oshirilishi bilan bir qatorda kamchiliklarga ham yo‘l qo‘yilmoqda.

Xususan, joriy yilning o‘tgan haftasida tuman iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish majmuasida 1 ta, tuman investitsiyalar va tashqi savdo

majmuasida 1 ta, yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar majmuasida 2 ta topshiriqlar ijrosi bo'yicha tayyorlangan javob xatlari sifatsiz hamda har tomonlama bajarilmaganligi bois ijro bo'limi tomonidan qaytarilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi "Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6166-son Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 31-maydagi "Ijro.gov.uz" ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5132-son hamda shu haqdagi viloyat hokimining 2021-yil 31-dekabrda 249-8-0-Q/21-son qarori bilan yaratilgan tizimni mustahkamlash, uning ahamiyatini yanada oshirish hamda samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlash vazifasi yuklatilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari va topshiriqlari ijrosini tashkil etish va monitoringini olib borishning amaliy tizimini yaratish, mas'uliyatsizlikning, o'zining to'g'ridan-to'g'ri funksional vazifalarini bajarishga yuzaki munosabatda bo'lishning har qanday holatlariga yo'l qo'ymaslik va oldinga qo'yilgan maqsadlar va vazifalarga erishish so'zsiz ta'minlanishi uchun mansabdor shaxslar barcha toifalarining shaxsiy javobgarligini belgilash va choralarni kuchaytirish maqsadida, tuman hokimining birinchi o'rinbosari O.Muratovning xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalariga bergan hisoboti inobatga olinib, O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, Xalq deputatlari Angor tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ijro.gov.uz" ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2021-yil 31-maydagi PQ-5132-sonli qarorining tumandagi ijrosi bo'yicha xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalariga bergan hisoboti ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimligi ijro intizomi nazorati bosh mutaxassisi, tuman hokimining tarmoqlar bo'yicha o'rinbosarlari va hokimlikning barcha bo'linmalari qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosini sifatli va samarali tashkil etishga mas'ul ekanligi qayd etib o'tilsin.

3. "Ijro.gov.uz" tizimi orqali nazorat va hisobdorlikni tashkil etishda tuman hokimligi tomonidan "Ijro.gov.uz" ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimida qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, qaror, farmoyish va topshiriqlari ijrosi bo'yicha nazorat va hisobdorligi oshirilsin.

4. Tuman hokimligi ijro intizomi nazorati bo'limi:

- “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi orqali kelib tushgan har bir qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosini samarali va rejali tashkil qilish maqsadida hujjat kelib tushgan vaqtdan 3 kun muddatda tegishli kotibiyatlar va hokimlik bo‘linmalari tomonidan hujjat “Nazorat rejasi”ning mas’ul ijrochilarga tanishtirilib, tasdiqlangan holda ijroga qaratilishini tashkil etsin;

- qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosini samarali va rejali tashkil qilish, ularning bajarilish holatini joylarda maqsadli o‘rganish va aniqlangan kamchiliklar bo‘yicha tezkor choralar ko‘rib borsin;

- har hafta dushanba kunlari tuman hokimi, juma kunlari tuman hokimining birinchi o‘rinbosari tomonidan o‘tkaziladigan muhokamalarga tanqidiy, qiyosiy ma’lumotlar kiritib borsin;

- topshiriqlar ijrosi yuzasidan tizimga kiritiladigan ma’lumotlarning to‘g‘riligi, haqqoniyliги va sifatiga jiddiy e’tibor qaratsin;

- topshiriqlarning ijro muddatiga qarab, mas’ul ijrochilarni har kuni, har hafta, har oyda, har chorakda va har yarim yilda bir marta xabardor qilib turish tizimini yo‘lga qo‘ysin;

- topshiriqlarning ijro muddati o‘tib ketmasligi, muddatidan kech bajarilishining oldini olish maqsadida tizimga mavjud tasdiqlovchi hujjatlarni ijrochilar tomonidan kamida 5-10 kun oldin biriktirish amaliyotini yo‘lga qo‘ysin va nazorat qilsin;

- qayta ishlashga yuborilgan topshiriqlar to‘g‘risida mas’ul ijrochini zudlikda ogohlantirib borsin;

- hokimlik mutaxassislari va yangi ishga kelgan xodimlar uchun muntazam tizimda ishlash, ishlarni tashkil etish tartibi bo‘yicha amaliy o‘quv seminarlar tashkil etsin;

- ijro intizomini ta’minlashda mas’uliyatsizlikka yo‘l qo‘ygan, shuningdek, topshiriqlarni to‘liq bajarmagan, kechiktirib bajargan yoki umuman ijrosini ta’minlamagan tuman hokimi o‘rinbosarlari, bosh mutaxassislari, aloqador tashkilot va bo‘limlarga nisbatan intizomiy javobgarlik masalalari yuzasidan taklif kirtsin.

Amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha tegishli ma’lumotlarni har oyning 5 sanasigacha xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyatiga taqdim etib borsin.

5. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (O.Muratov)ga:

- har oy yakuni bilan qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarining ijro holati axboroti, shuningdek, topshiriqlarni to‘liq bajarmagan, kechiktirib bajargan yoki umuman ijrosini ta’minlamagan rahbar va mas’ul xodimlarga nisbatan belgilangan tartibda intizomiy javobgarlik masalasini ko‘rib chiqish yuzasidan takliflarni kiritib

borsin;

- murojaatlarni ko‘rib chiqish uchun mas‘ul bo‘lgan xodimlarning mas‘uliyatini oshirish, bunda murojaatda ko‘tarilgan masalalarni ariza muallifi bilan joyida uchrashgan holda ko‘rib chiqish hamda amaldagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq hal etish yoki to‘liq asoslantirilgan javob xatlarining belgilangan tartibda va muddatlarida yuborilishini ta‘minlash;

- murojaatlarni joyida uzil-kesil hal etishda hamda murojaatlarning ko‘rib chiqilishida loqaydlik qilib, takroriy murojaatlarning yuzaga kelishiga yo‘l qo‘ygan mas‘ul xodimlarga nisbatan Mehnat kodeksining 181-moddasi talablari asosida choralar ko‘rib borish;

- murojaatlarga berilayotgan javoblarda unda ko‘rsatilgan har bir masala bo‘yicha vajlarni inkor etuvchi yoki tasdiqlovchi aniq asoslar bo‘lishini ta‘minlash vazifasi yuklatilsin.

6. Qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarda ijro muddati belgilanmagan yoki ijro muddati bir yil va undan ortiq etib belgilangan topshiriqlarning bajarilishi bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi ma‘lumot har olti oyda mas‘ul ijrochilar tomonidan “Ijro.gov.uz” tizimiga kiritib borilishi belgilab qo‘yilsin.

7. Quyidagilarga:

- tuman hokimining tarmoqlar bo‘yicha o‘rinbosarlariga – qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar mas‘ul ijrochilar tomonidan to‘liq va o‘z vaqtida bajarilishi yuzasidan ishlarning tashkil qilinishi uchun;

- ijro intizomi nazorati bo‘linmasiga qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar o‘z vaqtida bajarilishining nazorati olib borilishi, “Ijro.gov.uz” tizimi samarali yuritilishi hamda manzilli va tematik tahlillarning sifatli tashkil etilishi uchun;

- tashkiliy-kadrlar guruhiga qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarning to‘liq va o‘z vaqtida bajarilishini to‘g‘ri tashkil etmagan mas‘ul ijrochilarga nisbatan qonunchilikda belgilangan tartibda intizomiy jazo choralari qo‘llashi uchun;

- tashkilot, idora va muassasalar rahbarlariga - qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarning to‘liq va o‘z vaqtida bajarilishi, shuningdek, ularning ijro holati to‘g‘risidagi ma‘lumotlar “Ijro.gov.uz” tizimi orqali to‘liq, to‘g‘ri va o‘z vaqtida taqdim qilinishi uchun shaxsiy javobgarlik yuklansin.

8. Xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalariga:

- har oyda tuman hokimligida qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarining ijro holatini muhokama qilish hamda topshiriqlarning ijrosini ta‘minlamagan rahbar va xodimlarga nisbatan intizomiy javobgarlik masalalarini ko‘rib chiqib, xalq deputatlari

tuman Kengashi sessiyasi muhokamasiga kiritish;

- qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarining mazmun-mohiyati bo'yicha tushuntirish, targ'ibot ishlarini o'tkazish, mahallalarda ijrosini tashkil qilish, amalga oshirilgan ishlarni ommaviy axborot vositalarida muntazam yoritib borish hamda jamoatchilik nazoratini yo'lga qo'yish vazifalari topshirilsin.

9. Tuman hokimligi matbuot xizmati, "Angor yog'dusi" gazetasi tahririyati (G.Jumayeva)ga sohada amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalarida va internet tarmoqlarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

10. Yuqorida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan tegishli mansabdor shaxslar **har chorakda** xalq deputatlari tuman Kengashiga yozma axborot kiritib borsin.

11. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari raislari (R.Kabulova, Y.Xalimov, M.Qodirova, Sh.Qo'ziyeva, M.Sadatov, X.Xudoyberdiyev, D.Xo'janova) zimmalariga yuklansin.

12.Ushbu qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Sessiya raisi



X.Xolmurodov